



ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



ANDIJON VILOYATIDA BAJARILGAN QURILISH ISHLARI ASOSIY KO'RSATKICHLARI


2024-YIL YANVAR

ANDIJON VILOYATIDA FAOLIYAT KO'RSATAYOTGAN QURILISH KORXONALARI

2024-yilning 1-fevral holatiga Andijon viloyatida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni 2 117 tani tashkil etdi.

Qurilish korxonalarining katta qismi, ya'ni 735 tasi yoki viloyatdagi jami korxonalarining 34,5 % Andijon shahrida joylashgan.

2024-yilning 1-fevral holatiga qurilish korxonalarini soni, birlikda



Andijon sh.	735
Xonobod sh.	41
Oltinko'l	120
Andijon	157
Baliqchi	81
Bo'ston	99
Buloqboshi	66
Jalaquduq	45
Izboskan	101
Ulug'nor	44
Qo'rg'ontepa	65
Asaka	189
Marhamat	88
Shahrixon	155
Paxtaobod	64
Xo'jaobod	67

1 177

Bino va inshootlar qurilishi

296

Fuqarolik obyektlarini qurish


644

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Shuningdek, Andijon shahrida 735 ta (viloyat bo'yicha ularning jami soniga nisbatan 34,5 %), Asaka tumanida – 189 ta (8,9 %) qurilish korxonalarini mavjud bo'lib, qolgan hududlarga nisbatan kattaroq ko'rsatkichga ega.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi (yanvar uchun)

2024-yilning yanvar oyida, Andijon viloyatida jami 325,4 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 118,1 % ni tashkil etdi.




Maʼlumot uchun: qurilish faoliyati - bu, oʻz kuchi bilan amalga oshirilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hajmlari va boshqalar natijasidir.



2024-yilning yanvar oyida Andijon viloyatida qurilish ishlari

Shahar va tumanlarning hajmi va 2023-yilning mos davriga nisbati,
mlrd. so'm va foizda




2024-yilning yanvar oyida shahar va tumanlar kesimida, xususan, Andijon shahri (108,5 mlrd. so'm), Andijon tumani (39,4 mlrd. so'm) va Shahrixon tumanida (27,5 mlrd. so'm) qurilish ishlarining yuqori hajmi qayd etildi.

2024-yilning yanvar oyidaiqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2024-yilning yanvar oylarida Andijon viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 69,7 % ulushni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 111,1 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 19,0 % ulushni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 253,9 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 11,3 % ulushni va 2023-yilning mos davriga nisbatan 121,5 % ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmiga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qurilish pudrat shartnomalari asosida va xo'jalik usulida bajarilgan ishlar, shuningdek, sotish uchun mo'ljallangan obyektlar kiritiladi.

2024-yilning yanvar oyida umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 66,1 % yoki 215,2 mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa jtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

13,3
mlrd. soʻm

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan 13,3 mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 6,2 % ni tashkil etdi.

6,2 %

130,8
mlrd. soʻm

Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan 130,8 mlrd. soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 60,8 % ni tashkil etdi.


60,8 %

71,1
mlrd. soʻm

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 71,1 mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 33,0 % ni tashkil etdi.

33,0 %

Yillar kesimida yangi qurilishning hajmi va ulushi



2024-yilning yanvar oyida umumiy hajmdan yangi qurilish ishlari ulushi

Shahar va tumanlarning hajmi, mlrd. so'mda


	Yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik qayta qurollantirish	Ulushi, jamiga nisbatan % da
Andijon viloyati	215,2	100,0
Andijon sh.	71,6	33,3
Xonobod sh.	5,9	2,8
Oltinko'l	12,4	5,7
Andijon	25,9	12,0
Baliqchi	4,4	2,1
Bo'ston	7,9	3,7
Buloqboshi	4,1	1,9
Jalaquduq	10,2	4,8
Izboskan	6,5	3,0
Ulug'nor	4,2	2,0
Qo'rg'ontepa	7,2	3,3
Asaka	8,8	4,1
Marhamat	11,1	5,2
Shahrixon	18,1	8,4
Paxtaobod	9,9	4,6
Xo'jaobod	7,1	3,3

2024-yilning yanvar oyida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari bo'yicha yuqori hajm, Andijon shahrida (71,6 mlrd. so'm), Andijon tumanida (25,9 mlrd. so'm), Shahrixon tumanida (18,1 mlrd. so'm) va Oltinko'l tumanida (12,4 mlrd. so'm) qayd etildi.

2024-yilning yanvar oyida bino va inshootlar qurilishi asosiy ko'rsatkichlari

Korxonalar turlari bo'yicha

Jami bino va inshootlarni qurish mlrd. so'm



Amaldagi statistik kuzatuv shakllarida 2015-yilning 1-yanvaridan boshlab, "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (mahsulot, ish, xizmat) statistik tasniflagichi (MST)"ga muvofiq **"Qurilish" faoliyati bo'yicha "faoliyat turi bo'yicha o'z kuchi bilan amalga oshirilgan ishlar hajmi"** ko'rsatkichi qo'llaniladi.


Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 0,1 % ni tashkil etdi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2023-yilning mos davriga nisbatan 1,1 % punktga kamayib, 68,5 % ni tashkil etdi.

Ushbu faoliyat turida Norasmiy sektorning ulushi 2023-yilning mos davriga nisbatan 1,0 % punktga ko'payib, 31,4 % ni tashkil etdi.

2024-yilning yanvar oyida bino va inshootlar qurilishi


Shahar va tumanlarning hajmi, *mlrd. so'mda*



Ma'lumot uchun: Bino va inshootlarni qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Shahrixon (79,2 %), Marhamat (78,5 %) va Paxtaobod tumanlari (77,3 %)da kuzatildi.

2024-yilning yanvar oyida fuqarolik
obyektlarini qurish asosiy ko'rsatkichlari
Korxonalar turlari bo'yicha

Fuqarolik obyektlarini qurish, *mlrd. so'm*




Fuqarolik obyektlari qurilishiga avtomobil yo'llari, ko'chalar, ko'priklar va tunnellar, temir yo'llar, aerodromlar, gavanlar va boshqa suv loyihalari, sug'orish tizimlari, sanoat inshootlari, truboprovodlar va elektr uzatish liniyalari, ochiq sport komplekslari kabi og'ir konstruksiyalarni qurish kiradi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 18,0 % ni tashkil etdi. Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 82,0 % ni tashkil etdi. Norasmiy sektorning ulushi esa 0,0 % tashkil etdi.

2024-yilning yanvar oyida fuqarolik obyektlarini qurish

Shahar va tumanlarning hajmi, *mlrd. soʻmda*




Maʼlumot uchun: Fuqarolik obyektlarini qurish faoliyat turi boʻyicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Oltinkoʻl tumanida (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 28,0 %), Xonobod shahrida (29,0 %) va Buloqboshi tumanida (23,4 %) kuzatildi.

2024-yilning yanvar oyida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari asosiy ko'rsatkichlari

Korxonalar turlari bo'yicha

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari, *mlrd. so'm*




Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari sayqallash, suvoqchilik, bo'yoqchilik ishlari, pollar va devorlarni plitka bilan qoplash yoki parket, kovrolan, gulqog'ozlar bilan qoplash, shuningdek, pollarni siklyovkalash, duradgorlik ishlari, ovoz izolyatsiyalash ishlari, tashqi hududlarni tozalash kabi bezatishga aloqador ishlarni o'z ichiga oladi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 4,9 % ni tashkil etdi.

Qolgan 95,1 % kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 1,1 % punktga ko'paydi.

2024-yilning yanvar oyida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari


Shahar va tumanlarning hajmi, mlrd. soʻmda



Maʼlumot uchun: Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari faoliyat turi boʻyicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Oltinkoʻl tumanida (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 14,5 %), Xonobod shahrida (17,6 %) va Boʻston tumanida (16,8 %) kuzatildi.

2024-yilning yanvar oyida korxonalar turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Qurilish ishlari hajmining tarkibi, *mlrd. so'mda*




Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.


Jami hajmga nisbatan ulushi



Yirik qurilish tashkilotlari



Kichik korxonalar va mikrofirmalar



Norasmiy sektor


2023-yilning mos davri bilan solishtirganda –
354,0 %

2023-yilning mos davri bilan solishtirganda –
118,1 %

2023-yilning mos davri bilan solishtirganda –
104,7 %

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024-yilning yanvar oyida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Yirik qurilish tashkilotlari, jamiga nisbatan ulushi




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024-yilning yanvar oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 13,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2023-yilning mos davriga nisbatan 354,0 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 2,7 % ga ko'payib, 4,1 % ni tashkil etdi.

Xo'jalik usulida bajarilgan ishlar hajmi qurilish egasi tomonidan hisobot davrida qurilish ishlariga sarflangan xarajatlaridan kelib chiqib aniqlanadi.



Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 2024-yilning yanvar oyida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik korxonalar va mikrofirmalar, jamiga nisbatan ulushi




2024-yilning yanvar oyida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 74,1 % to'g'ri kelib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 0,5 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2023-yilning mos davriga nisbatan 118,1 % ni tashkil etgan holda 241,0 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.



2024-yilning yanvar oyida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan ishlar


Shahar va tumanlarning o'sish sur'ati, hajmi, mlrd. so'mda



Ma'lumot uchun: ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Andijon shahrida (92,9 mlrd. so'm), Andijon tumanida (35,4 mlrd. so'm) va Shahrixon tumanida (23,4 mlrd. so'm) qayd etildi.

2024-yilning yanvar oyida qurilish ishlarining umumiy hajmidagi norasmiy sektor

Norasmiy sektor, jamiga nisbatan ulushi




Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 21,8 % ni yoki 71,1 mlrd. soʻmni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 104,7 % ni tashkil etdi. Shundan 47,7 mlrd. soʻmi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga toʻgʻri kelib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 107,7 % ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 16,9 mlrd. soʻmni va 95,5 % ni, yakka tartibdagi turar-joylarni taʼmirlash ishlari 6,6 mlrd. soʻmni va 109,5 % ni tashkil etdi.



2024-yilning yanvar oyida qurilish ishlarining umumiy hajmidagi norasmiy sektor


Shahar va tumanlarning o'sish sur'ati, hajmi, mlrd. so'mda



Ma'lumot uchun: ko'rib chiqilayotgan davrda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Andijon shahrida (11,8 mlrd. so'm), Asaka tumanida (6,6 mlrd. so'm) va Paxtaobod tumanida (6,5 mlrd. so'm) qayd etildi.

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

yanvar oyidagi hajm, mlrd. so'mda



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 14,2 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa, 311,2 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 4,4 % va 95,6 % ni tashkil etdi.



Ma'lumot uchun: nodavlat mulk obyektlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush Asaka tumani (ushbu shahardagi qurilish ishlari umumiy hajmining 100,0 %), Xo'jaobod tumanida (qurilish ishlari umumiy hajmining 100,0 %) va Paxtaobod tumanida (ushbu tumanidagi umumiy qurilish ishlarining 100,0 %) qayd etildi.

Qurilish ishlari USLUBIY TUSHUNTIRISHLAR

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari maydoni rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Kapital qurilishga pudrat shartnomasi – bunda pudratchi shartnomada belgilangan ishlarni amalga oshirishi yoki xavf-xatarni o'ziga olgan holda obyektни qurish va shartnomada belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa, pudratchiga qurilish maydonini ko'rsatadi yoki ish jabhasini ta'minlaydi, ularni qabul qiladi va to'lovlarni amalga oshiradi.

Qurilish tashkilotlariga – barcha umumiy qurilish va ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, mexanizatsiya boshqarmalari, ishga tushirish va sozlash tashkilotlari, neft va gaz uchun qidiruv quduqlari qurilishi bilan bog'liq chuqur qidiruv burg'ulash ishlari va boshqa ishlarni amalga oshiruvchi, shuningdek, kapital qo'yilmalar hisobiga qurilayotgan neft va gaz uchun ekspluatatsiya quduqlari qurilishi bilan shug'ullanuvchi burg'ulash tashkilotlari kiritiladi.

Investitsiya va qurilish statistikasi bo'limi
Tel.: 74 224-80-00 (6020)